



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



FIZIKA FANIDAN LABORATORIYA ISHLARINI O'TKAZISHDA NATIJAGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM VOSITALARI. FIZIKA FANINI O'QIT

Axunjanova Shirmonoy Isroiljonovna

*Farg'ona viloyati PYMO 'MM metodik xizmat bo'limi
metodisti(shirinaxunjanova95@gmail.com)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta'lim maktablari fizika darslarida zamonaviy yondashuv asosida laboratoriya ishlarini o'tkazishda ta'lim vositalaridan foydalanishni samarali usullari haqida fikr mulohazalar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Kollaboratsiya, kreativ, kritik, kommunikativlik.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье описаны эффективные методы использования учебных средств при проведении лабораторных работ на основе современного подхода на уроках физики общеобразовательных школ.*

Ключевые слова: *сотрудничество, творчество, общение, творчество, объект.*

Kirish. Bizga ma'lumki, rivojlanish har qanday inson faoliyatining ajralmas qismidir. Tajriba to'plash, harakatimizning usullari va ushbu usullarni takomillashtirish, shu asnoda qobiliyatlarini kengaytirish orqali inson doimo rivojlanib, yuksalib boradi. Xuddi shu jarayon insonning har qanday faoliyatiga, shu jumladan pedagogik faoliyatiga ham tegishli. O'z taraqqiyotining turli bosqichlarida jamiyat har doim yangi me'yorlar va mehnat talablarini taqdim etar ekan, bu ta'lim tizimini ham rivojlantirishni taqazo etadi. Bunday rivojlanish vositalaridan biri zamonaviy texnologiyalar, ya'ni pedagogik faoliyat natijalariga samarali erishishni ta'minlaydigan o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tubdan yangi usullari hisoblanadi. Bizga ma'lumki, yangi o'quv yilidan boshlab o'quvchilar 4K tamoyili bo'yicha ta'lim oladilar. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi.

4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti. "4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo'q deb aytish noto'g'ri.

Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat. Zamonaviy ta'lim bola va o'qituvchi o'rtasida demokratik sheriklik asosida insonparvarlik aloqalarini o'rnatish, shuningdek, o'quvchilar shaxsiyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Sog'lom zamonaviy muhit ta'lim berishda muhim. Shunday ekan, zamonaviy texnologiyalarning maqsadi ham o'z o'quv va bilim faoliyatini mustaqil ravishda tuzishga va sozlashga qodir kelajakdagi mutaxassisning faol, ijodiy shaxsini yaratishdan hamda shakllantirishdan iborat.

Fizika fanidan laboratoriya ishlari samaradorligini oshirishda ta'lim vositalari va didaktik ta'minotni ahamiyati katta. Ta'lim vositalari – o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

1. Ta'limning texnik vositalari- o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, bilish, qo'llash, mulohazaga oid topshiriqlarini bajarishlari uchun yordam beradi.

2. Yordamchi ta'lim vositalari- grafiklar, chizmalar, jadvallar va boshqalar.

3. O'quv-uslubiy materiallar- o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular o'quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar.

Laboratoriya ishini tashkillashda avvalo o'quvchilarni jamoalarga bo'linadi. Jamoalarga laboratoriya ishini bajarish bo'yicha topshiriqlar beriladi. Bu bosqichma –bosqich amalga oshiriladi.

1) Oquvchilar virtual tarzda laboratoriya ishini kuzatadi;



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



2) Jamoa bilan birgalikda o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradilar: a) laboratoriya ishining maqsadi o'rganiladi; b) kerakli jihozlar bilan tanishadilar; c) ishni bajarish tartibi bilan tanishadilar; d) har bir guruh jadval tayyorlaydi va to'ldiradi; e) jamolarga mulohazali savol va topshiriqlar beriladi.

3) Xulosa chiqaradilar.

Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki, fizika fanidan laboratoriya ishlarini o'tkazishda 4K tamoyili asosida o'qitish o'quvchilarni muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Ta'lim vositalarisiz 4K tamoyili bo'yicha o'qitish laboratoriya ishlarini samaradorligini kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fizika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar (o'quv-uslubiy majmua).-Toshkent.: 2018

2. Djoraev M. Fizika o'qitish metodikasi (umumiy masalalar). – Toshkent.: TDPU, 2013

3. Ишмухамедов Р. Ўқув жараёнида интерфаол услублар ва педагогик технологияларни қўллаш услубияти. – Т.: РБИММ, 2008. – 68 б.

4. Kun.uz/news/ elektron sayti.